

Aydarov E.B.

p.f.b.f.d. (PhD) dosent v.b.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ergasheva R.A.

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bola tarbiyasi haqida aytib o'tilgan. Oilada, ko'chada, maktabda bolaga qanday muomala qilish zarurligi aytib o'tilgan. Ota-onalar, ayollar ushbu maqoladan foydalansa bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, oila, maktab, jamiyat, bilim, avlod, farzand, ota-ona, burch.*

Аннотация: *Данная статья посвящена воспитанию детей. Было упомянуто, как обращаться с ребенком в семье, на улице, в школе. Родители, женщины могут воспользоваться этой статьей.*

Ключевые слова: *Воспитание, семья, школа, общество, знания, поколение, ребенок, родители, долг.*

Annotation: *Dannaya statya posvyashchena vospitaniyu detey. Bylo upomyanuto, kak obrashchatsya s rebenkom v seme, na ulitse, v shkole. Roditeli, jenshchiny mogut vospolzovatsya etoy statey.*

Key words: *Vospitanie, semya, skola, obshchestvo, znaniya, pokolenie, rebenok, roditeli, dolg.*

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.¹¹

Bola tarbiyasi esa jamiyatda eng muhim va asosiy vazifadir, chunki bolalar kelajagimizdir. Bola tarbiyasi bilan yoshlikdan shug'ullanish lozim. Aslida ona qornida bola tarbiyalanib boshlanadi. Shunday ekan, tarbiyani ona qornidan boshlash lozim. Yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni katta ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila bolaning jismoniy kamolotidagina emas, balki ma'naviy kamolga

¹¹ O' A. Abdurazzaqov M. Q. Mamtaliyev TARBIYA FANINING MAZMUN TAMOYILLARI International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers

yetishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Farzand tarbiyasi ota-ona va jamiyat oldidagi eng zarur va asosiy vazifa hisoblanadi. Farzandning jismoniy, ruhiy va aqliy kamolotiga bolalikdan e'tibor qaratish lozim. Odamning inson sifatida shakllanishi ham uning bolaligidan boshlanadi. Yaxshi, go'zal tarbiya olgan bolalar ulg'aygach, axloqli, go'zal odobli insonlar bo'lib yetishadi. Solih farzand o'z ortida qoldiradigan eng yaxshi boylikdir. Solih farzand dunyo va oxiratda ota-onasiga foyda keltiradi.

Farzand tarbiyasi deganda bolani tug'ilishdan voyaga yetgunga qadar tarbiyalashda qo'llaniladigan jarayonlar, strategiyalar va yondashuvlar tushuniladi. Ota-onalar farzand tarbiyasida foydalanadigan usullar butun dunyoda sezilarli darajada farq qiladi. Ota-onalar tarbiyasiga madaniyatlar farqlari va tartib-intizom, qoidalarni o'rnatish va bo'ysunishni kabi masalalar bo'yicha turli nuqtai nazarlar ta'sir qiladi. Bolani tarbiyalashning yagona "to'g'ri yo'li" yo'q. Tarbiyalashda faqat bir narsa asosida, bir narsaga bog'lanib tarbiyalab bo'lmaydi. Vaziyatga qarab yo'l ko'rsatiladi. Ota-onalar ko'plab yondashuvlardan foydalangan holda mustaqil va ishonchli bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalaydilar. Biroq, o'qishdan keyin o'rganishda bitta umumiy mavzu paydo bo'ladi: ota-onalarning g'amxo'rliqi va ishtiroki, har qanday maxsus bola tarbiyasi strategiyasidan ko'ra, bolani muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun zarurdir. Eng yaxshi natijalar aniq qoidalarni belgilash va muammolarni hal qilish uchun bolalar bilan ishlash bilan bog'liq.

Oilada bolani hech qachon uyaltirmaslik va izza qilmaslik kerak. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni esdan chiqarishi qiyin bo'ladi. Ko'pchilik orasida izza bo'lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog'lom bo'lsin desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo'rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan hatti-harakatini qoralab uni jazolab o'tirmang, ayniqsa voqeani yuziga solib izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo'lishi xavfi bo'lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo'lishi mumkin bo'lgan ishlardan ogohlantirib tarbiyalab borsangiz uning oiladagi o'rnini kamsitmagan bo'lasiz.¹²

Likopcha bolangiz olib kelayotganda qo'lidan tushib ketib singanda emas, bu likopcha sinib bo'ldi, undan ko'p vaqt ilgari ish buyurganingizda «ehtiyot bo'l, sinib qolmasin», degan tarbiyaviy so'zlardan boshlang.

Bola o'z irodasi bilan kunduz maktabda buyurilgan ishlarni bajarishga o'rgansa, kechqurun ishdan qaytganingizdan keyin siz uni dars tayyorlashga o'tirishga majbur qilishingizga o'rin qolmaydi. O'z burchini bajarishga majbur qilingan oila a'zosining oilada ruhiy o'rnini boshqalar bilan barobar bo'lishi mumkin emas. O'z burchini majburan qilib o'rgangan bola mustaqillikka o'rganmaydi. Shunday ekan biz hammamiz bolalarni mustaqil bo'lishini juda-juda kutamiz va mustaqillikka o'rgatishim kerak.

¹² B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.SogUnov, F.A.Akramova, G. Solihova, G.Niyozmetova OILA PSIXOLOGIYASI Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

Maktabga ilk borish hamma uchun ham boshqacha tuyuladi. Sababi bola hali Maktab tushunchasini eshitgani bilan kirmagan, u yerda bilim olmagan shunday ekan maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, o'z shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Ruhiiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o'rganib boradi. Ilm olish ham tarbiyaning asosiy tayanchidir. Bilimli bola tarbiyaviy jihatdan ham yaxshi hisoblanadi. Shunday ekan, bilim va tarbiya bir-biriga yaqin. Bu ikkalasi yaxshi rivojlansa jamiyatga kerakli inson yetishib chiqadi. Zeltserning so'zlariga ko'ra, obro'li ota-onalar odatda mustaqil, o'ziga ishonadigan va ijtimoiy jihatdan barkamol bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lgan bolalarni tarbiyalaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tamanki, bola tarbiyasi eng muhim omildir. Har bir ota-ona farzandini to'g'ri tarbiyalay olishi kerak. Avvalo, ota-ona o'zi ustida ishlashi zarur, sababi o'zida bilmay turib bolaga hech narsa berolmaydi. Farzand bu kelajak shunday ekan kelajagimiz yaxshi bo'lishi uchun biz farzandlar har tomonga mukammal inson bo'lib yetishishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V.M.Karimova Oila psixologiyasi: darslik. Pedagogika oliygozlari talabalari uchun.. – T. 2007. – 316 b.
2. B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.SogUnov, F.A.Akramova, G.Solihova, G.Niyozmetova Oila psixologiyasi Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. T. 2014. – 225 b.
3. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov. Ijtimoiy pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 yil.
4. O'.A.Abdurazzaqov, M.Q.Mamtaliyev. Tarbiya fanining mazmun tamoyillari International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 2022.
5. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.